



NOTIQLIK SAN'ATI VA NUTQ MADANIYATI

Pulatova Shaxnoza Maxmudjanovna

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Mumtoz sharq tillari fakulteti, Filologiya
(arab tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi*
shaxnozapulatova28@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali avval va hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib kelayotgan notiqlik san'ati tarixi, ilk asoschilari, uning turlari, tarkibiy qismlari va notiqlarga qo'yilgan talablar bilan tanishiladi. Nutq ma'daniyati va notiqlik san'ati sohasining kelib chiqishidagi omillar haqida fikrlashiladi. G'arb va sharq olimlarining notiqlik san'ati va nutq madaniyatiga nisbatan bildirgan fikrlari bilan tanishib, qarashlari va mulohazalari tahlil etiladi.

Kalit so'zilar: Notiqlik san'ati, nutq madaniyati, til, Qadimgi Yunon, Ibn Sino, istiora, antiteza, mantiqiy urg'u.

Abstract: Throughout this article, we will delve into the history of the art of public speaking—a practice that remains relevant both in the past and present. We will explore its pioneers, various types, components, and the essential requirements for speakers. We will examine the factors contributing to the origin of speech culture and the art of speaking. Additionally, we will analyze the perspectives and opinions of Western and Eastern scholars on the art of oratory and the culture of speech.

Keywords: Oratory, speech culture, language, Ancient Greece, Ibn Sina, metaphor, antithesis, logical emphasis.

Аннотация: Благодаря данной статье будет представлена история искусства публичного выступления, которое актуально и раньше, и сейчас, его первые основоположники, его виды, составляющие и требования к ораторам. Рассмотрены факторы возникновения речевой культуры и искусства речи. Анализируются взгляды и мнения западных и восточных ученых относительно ораторского искусства и культуры речи.

Ключевые слова: Ораторское искусство, культура речи, язык, Древняя Греция, Ибн Сина, метафора, антитеза, логическое подчеркивание.

KIRISH

*“O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-
ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi”*

Karimov I.A. [5-83]





Til insoniyatning atrof olam, undagi insonlar va maxluqotlar bilan aloqa vasitasining eng asosiysidir. U orqali ko'rib turgan butun borliqni, o'z his-tuyg'ularini, tasavvurlarini bildirishi, fikrini bayon etishi, o'zaro munosabatlarni bog'lashda asosiy vosita hisoblanadi. Insoniyatni maxluqotlar olamidani ajralib turish sababi ham aynan nutqdir. Til inson faoliyatining barcha sohalarida, jamiyat hayotining turli bosqich va tarmoqlarida amal qiladigan ijtimoiy hodisadir. Fikr almashish bo'lmasa, jamiyat halok bo'ladi. Tilsiz esa fikr almashib bo'lmaydi. Oybek "So'z chertib olinishi, har yoqlama tanlanishi lozim", - deb yozadi [10]. Nutq orqali yaxshilikka ham, yomonlikka ham erishish mumkin. "Boshinga ne kelsa o'z tilingdan", - deya dono xalqimiz takidi bejiz emas.

ASOSIY QISM

Inson o'zligini taniganidan buyon o'zaro munosabatdagi eng muhim vosita so'zga katta e'tibor qaratilgan. Topib, chiroyli so'zlash muhim hislatlardan hisoblangan. Shu sababli ham Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda notiqlik san'ati jadal rivojlangan, o'nlab notiqlik maktablari paydo bo'lgan, atoqli notiqlar yetishib chiqqan, notiqlik qonun-qoidalari, tamoyillari xususida qo'llanma va darsliklar, risolalar yaratilgan. Xususan, eramizdan oldingi V asr oxiri IV asr boshlarida Sokrat, Platon, Lisiy, Aristotel, Gorgiy, Trasimax, Filokrat kabi Elladaning mashxur notiqdari yetishib chiqdi. Ular nuqtai nazaridan olganda, notiqning vazifasi uch xil bo'lib, tushuntirish, ishontirish va undashdan iborat edi.[3-9] Ibn Sinoning fikriga ko'ra, inson tili faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki muloqot egalariga muayyan ahloqiy va estetik ta'sir etish ham lozim. U "Kishi nutqining kuchi shundaki, u boshqa kishilarga ham ta'sir qila oladi",-degan [9].

Abu Rayhon Beruniy fikricha, tilning asosiy vazifasi insonlarning o'zaro muloqotini ta'minlash. "Til-so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir" [1-22]. "Til-bu hamma uchun umumiy bo'lgan Sistema, nutq esa bir vaqtning o'zida ham axborot yetkazuvchi, ham harakat vositasi. Shu ma'noda nutq shakllari, garchi ular tilning ichida va uning yordamida shakllansalar-da, har safar noyobdir". Nutq tilning ifoda vositalaridan foydalangan holda voqeilikka aylangan fikrdir [12].

Notiqlik bu — so'z san'ati, so'z san'ati bo'lganda ham ohangdan libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so'z san'atidir. Madomiki, "so'z" qudratini chuqur anglagan, "so'z" ne'matining Alloh tomonidan faqatgina insonga in'om etilganligini his etgan buyuk allomalargina uni qadrlaganlar va e'zozlashga undaganlar. Shu ma'noda





notiqlik san'ati boshqa san'at turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir.[10] Qadimda mohir notiqlargina lashkarboshlik va davlat arboblari lovozimlariga saylab tayinlanganliklari ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi. Temuriylar davrida, xususan, XIV-XV asrlarda ilm-fan bilan bir qatorda notiqlik san'ati ham ravnaq topdi. Alisher Navoiy, Ataulloh Husayniy, Abdurahmon Jomiy, Voiz Koshifiy, Zayniddin Vosifiy, Binoiy, Mirxond, Xondamir va boshqa shoir va allomalar o'zlari voizlik (notiqlik) san'atini mukammal egallab, tasirli va'zlar aytib qolmay, uning nazariyasini ham rivojlantirganlar. Xususan Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul lug'otayn" asarida so'zning inson hayotida tutgan o'rniga yuksak baho beradi, uni inson tirilishi bilan bog'liq mo'jizaga tenglashtiradi. [10-66] Ulug' allomalarimiz Abu rayhon Beruniy, Abu Nasir Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy va boshqalar nutqning inson hayotidagi muhim o'rni haqida fikr yuritganlar va xulosalarini o'z asarlarida aks ettirganlar. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida "Erdam boshi til", yanikim odobning boshi til degan ma'nodagi maqol keltirilgan [6].

Notiqlik san'ati xattoki katta-kichik janglar oldidan podshoh va sarkardalar uchun ham zarur bo'lgan. Podshoh va amirlar qoshida maxsus voizlik mansabi joriy etilgan. Tarixiy dalillarga ko'ra 1393 yilda Amir Temur xizmatiga qabul qilingan "Zafarnoma" asari muallifi, mavlono Nizomiddin Shomiy 1404 yilgacha harbiy yurishlarda voqeanivis va voiz mansabida faoliyat yuritgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ham Ibrohim Lodining fillari ham bo'lgan 100 ming kishilik qo'shiniga qarshi o'zining 12 minglik armiyasi bilan janggi kirishdan avval va'z aytadi. U o'zing notiqlik san'ati va tasirchan so'zlari bilan qo'shinni shu darajada ruhlantiradiki oqibat ular to'g'ri tanlangan harbiy taktika va jangovor ruhi sababli hayot-mamot muhorabasida g'alaba qozonadilar [3].

Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davrida ishlab chiqilgan notiqlik qo'llanmalari o'zini oqlagan va xozirgi kunda ham eskirgani yo'q. Notiq avvalo, muvaffaqiyat qozonishi uchun unda iste'dod, chuqur bilim, keng mushohada, izlanuvchanlik-g'ayrat, o'z ishiga ishonch, jo'shqinlik, yaxshi ovoz bo'lmog'i lozim. Bulardan birginasi bo'lmasa ham u ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi. Notiq so'zlayotgan nutqini jonli, ishonarli, tasirli qilmog'i lozim. Nutqning sermazmun, tushunarli bo'lishida o'xshatish, sifatlash, istiora, antiteza, so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish, mubolag'a, ritorik so'roq va xitoblar hamda, intonatsiya, melodiya yani musiqiylik ham katta ahamiyatga egadir [3].





O'xshatish, badiiy til vositasi sifatida, biror narsa-predmet yoki voqea-hodisani tinglovchi ko'z oldida yaqqol gavdalanirib beradi. Masalan: Xalq, kuchli yel bilan chayqalgan dengiz kabi, birdan qo'zg'aldi [8].

Sifatlash esa narsa-predmetni yoki voqea-hodisani ko'rsatuvchi badiiy til vositasidir. Masalan: Katta xizmat, behisob tashvish kabilardir.

Istiora esa shunday badiiy til vositasidirki, bunda bir predmetga xos bo'lgan belgi boshqa bir predmetga ko'chiriladi. Masalan: "muz yurak", "temir iroda".

Antiteza ham nutqda muhimdir. Unda muayyan so'zlanayotgan voqea-hodisa yohud predmet boshqasiga mutlaqo zid holatda qo'yiladi. Masalan: biron qoloq o'quvchi haqida gapirilayotganda unga qarshi eng aqilli, faol o'quvchini misol qilib ko'rsatishi antiteza bo'ladi.

So'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi nutqni boyitadi, rango-rang qiladi va tasirchanligini oshiradi. Masalan: Judayam bo'shang, yuvvosh va bezarar inson xaqda gapirmoqchi bo'lganda, unga nisbatan "qo'ydak yuvvosh" degan ibora ishlatiladi.

Nutqdagi mubolag'a usulining ham o'z o'rnini bor bo'lib u fikr yuritilayotgan narsa-predmet yoki voqea-hodisaning miqyosini, kuchuni, ahamiyatini nihoyatda oshirib ko'rsatuvchi obrazli ifodadir. Masalan: "Yerni kindigini sug'urib oladi".

Dialog uslubi, ya'ni o'z nutqida ikki shaxsning gaplaridan parcha keltirish og'zaki nutqni juda ham jonlantirib yuboradi. Ba'zan esa bu tinglovchilar bilan ritorik dialogga aylanib ketadi. Bunda nutq so'zlovchi tinglovchilar tomonidan "Ehtimol sizlar so'zlarimga norozilik bildirmoqchidirsizlar",- deydi va taxmin qilgan e'tirozlarini keltirib o'tib so'ngra o'zi bunga javob beradi. Bu usul tinglovchini diqqatini muayyan bir narsaga kuchliroq tortish uchun qo'llaniladi. Ko'pgina notiqlar aynan shu usuldan keng qo'llashadi va kutilgan natijalarga erishiladi [2].

Intonatsiya, notiqlik san'atini mukammal egallash istagida bo'lganlar albatta tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, jummalarni jarangdor qilib aytishi lozim. Intonatsiya tilning ko'p qirrali murakkab hodisalaridan bo'lib, u musiqiy, ohang, pauza, temp, logik va ritmik urg'u kabi bir qancha komponentlardan tashkil topadi. Uning ikki turi: nutq intonatsiyasi va gap intonatsiyasi mavjud bo'lib, notiq kerakli joyda mahorat bilan qo'llay olishi orqali tevarak atrofga, undagi hodisalarga bo'lgan munosabati intonatsiyasida yuzaga chiqadi va tinglovchilarga bir so'zni turli talqinda yetkazib bera oladi. Mohir pedagog A.C.Makarenko shunday deb yozadi: "Men "beri kel" so'zini





15-20 xil turda gapirishga o'rganib olganimdan keyingina haqiqiy mahorat egasi bo'lib qoldim"[7-52].

Nutqda logik urg'uning ham o'z ro'li mavjud. U nutqda biror so'z yoki iborani bo'rttirib, takidlab ko'rsatuvchi muhim vositadir. Urg'u ifodali o'qish, ifodali so'zlashning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Urg'uning turlari ko'p bo'lib asosiylari so'z ya'ni leksikalogik urg'u va mantiqiy urg'udir. So'z urg'usi tushgan bo'g'indagi unli tovush boshqa unli tovushlarga nisbatan kuchliroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi.

Mantiq urg'usi inson fikrlari va sezgilarini ifoda etishning zaruriy vositasi bo'lib, tinglovchi diqqatini o'ziga tortishga yordam beradi. Leksik urg'uda faqatgina ma'lum bir so'z nazarda tutilsa, mantiqiy urg'uda butun boshli to'liq gap narzarda tutiladi. Aynan so'zlanilayotgan so'zning eng muhim joyiga nisbatan qo'llaniladi. Aynan shu sababli ham so'z urg'usini qo'llashdan ko'ra, mantiqiy urg'uni qo'llay bilish mushkilroqdir. Gapning mazmun mohiyatiga ko'ra mantiq urg'usi birgina so'zga emas, so'z birikmasiga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Misol o'rnida: "Amerika qo'shma shtatlari prezidenti yurtimizga tashrif buyurdi" [4].

Notiqlik san'atida so'zlovchining nutq temp tovushining tez yoki sekin oqimidan iborat. Nutq ohangi odatda kimga va qayerda nutq so'zlayotganiga qarab tanlanadi. Kichik zalda juda ham baland gapirish yohud, katta ochiq joyda past ohangda so'zlash notiqning nutqini zavol qiladi va tinglovchilarni charchatadi. Bu borasida A. Qaxxorning "Nutq" hikoyasida yumoristik tarzda nihoyatda chiroyli ochib berilgan.[2] Ibn Sino "Ovozni yoqotmaslik, nafas olish organlarini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo, o'qishni past ovoz bilan boshlab, keyinchalik asta-sekin kuchaytirish, lekin kuchli ovoz bilan o'qish ham uzoq davom etmasligi kerak",— deb takidlagan.[9-52]

Notiqlikda imo-ishora tinglovchilarni diqqatini tortish, ularga nutqni yanaqa yaxshiroq yetib borishiga xizmat qiladi. Sitseron imo-ishoralar ba'zan murakkab mantiqiy muxokama va tushuntirishlarning o'rnini bosganligini takidlab o'tgan. Angliyalik psixolog Arkaym turli xalqlarning notiqlari nutqi davomida qancha imo-ishoradan foydalanishlarini hisoblab chiqqan. Bir soatda Meksikalik 180, Fransuz 120, Italiyalik 80, Finikiyalik esa bor-yo'g'i bir marotaba nutqqa qo'shimcha yordamchi xarakter qilgan [11-16].

Notiq o'z nutqini tinimsiz boyitib borishi kerak. Har bir notiq ulkan yozuvchilarimizning hikoya va novellalari, she'r va dostonlari, romanlarini va





asarlarini o'qish orqali o'z bilimini ortiradi, dunyo qarashini kengaytiradi va tilini boyitadi, suxbat jarayoniga nutqini aniq va tushunarli bayon etishga o'rganadi. Xattoki ba'zi holatlarda Navoiy, Gulhaniy, Furqat, Muqimiy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, G'ofur G'ulom, Oybek, Abdulla Qaxxor kabi ijodkorlarning asarlaridagi satirik obrazlardan ham foydalanish nutqda katta yordam beradi. "Adabiy me'yorlarning turli buzilishlarini chuqur va ob'yektiv tahlil etmasdan turib yuksak nutq madaniyati uchun kurashni tasavvur qilib ham bo'lmaydi"[13]. Tilshunos L.P.Krisinning bu fikrini davom ettirib aytish mumkinki, nutq madaniyati adabiy tilning himoyachisidir. Iste'moldagi xato so'z, so'z birikmasi ham adabiy nutq meyyorlaridan chekinish hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan maqollar, turli hikmatli so'zlar ham nutqni tushunarli va tasirli bo'lishiga katta yordam beradi. Qadirdon iboralarni eshitgan tinglovchida o'zgacha hissiyot paydo bo'ladi va nutqqa sergakligi ortadi. "Yaxshi naql tomiri-aql" deyilgan maqol so'zimiz isbotidir. "Burchaksiz uy bo'lmas, maqolsiz so'z bo'lmas" deb bejiz aytilmagan. Buni o'z joyida, o'rinli qo'llay olgan notiq albatta murakkab nutqini qisqa bir frazalar orqali tinglovchiga yetkaza biladi. [3].

Nutqni boyitish masalasida lug'at ham katta ahamiyatga egadir. O'z nutqini oshirishni istagan har bir notiq albatta lug'at ilmidan ham habardor bo'lmog'i shart. Lug'atlar ham turlidir: izohli lug'at, frazeologik lug'at, sinonim so'zlar lug'ati, international so'zlar lug'ati, ensiklopedik lug'at va boshqalar. Ba'zi qo'shimchalarning ham nutqda keragidan ortiq, o'zinsiz ishlatilishi nutqni g'alizlashtiradi. G'aliz uslub esa tinglovchining g'ashini keltiradi.

XULOSA

Jamiyat va xalq bor ekan, hali qadimiy vaqtlardan oq ma'naviy ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan notiqlik san'ati davom etaveradi. U barcha xalqlar va zamonlar kishilarining ma'naviyatini yuksaltirish, ularni axloqli, odobli qilish zamon talabiga javob bera oladigan insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir jamiyat va undagi har bir shaxs aynan nutq madaniyati va notiqlik san'atiga e'tiborli bo'lishi va uni o'zlashtirishi orqali faqatgina yuksaklikka erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar. -T.: Yosh gavardiya,1973.
2. Ahmedov A.Notiqlik san'ati.-T.: O'zbekiston,1967.





3. Azimov M. Notiqlik san'ati. -Termiz: Surxon-nashr, 2021.
4. Jobirov O'. Nutq madaniyati:lektorga yordam. -T.: O'zbekiston SSR Bilim jamiyati, 1989.
5. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. - T.: 2008.
6. Mahmud Qoshg'ariy. Devoni lug'atit turk. 1 tom. - T.: O'zFA, 1960.
7. Makarenko A.S.. Tanlangan asarlar. M., 1945.
8. Oybek. Qutlug' qon. — T.: G'ofur G'ulom, 2019.
9. Raximov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya.
10. Teshabayeva D.M., Kamalova M.N. Nutq madaniyati: darslik. T.: Iqtisodiyot, 2018
11. Адамов Е.А. Пропагандисту об ораторском искусстве. —М.: Московский рабочий, 1983.
12. Бенвенист Е. Общая лингвистика. —М., 1974.
13. Крысин Л.П. К типологии лексических “неправильностей” / Русский язык в национальной школе. №-5. — М., 1975.

